



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-mart


RAQAMLAR:

- 2018 yil yanvar-mart oylarida bozor xizmatlari hajmi 411,9 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati 126,3 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 504,1 ming.so'mni tashkil etdi.

“2016 – 2020 yillarda xizmatlar sohasining rivojlantirish dasturi” ni hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida chora-tadbirlarning davom ettirilishi, xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish imkonini bermoqda. Natijada, 2018 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 411,9 mlrd. so'mni tashkil etdi .

Bozor xizmatlarining eng katta hajmi savdo xizmatlari, transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, ta'lim xizmatlarida kuzatilmoqda.

Xizmatlar ishlab chiqarish hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



**2018 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**


	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	411,9	106,5
shaharlar:		
Guliston	214,3	111,1
Shirin	4,5	100,2
Yangiyer	27,0	100,2
tumanlar:		
Oqoltin	9,2	102,4
Boyovut	19,8	104,3
Sayxunobod	19,2	103,5
Guliston	15,1	100,9
Sardoba	12,7	100,6
Mirzaobod	18,7	103,0
Sirdaryo	54,5	101,8
Xovos	16,9	100,9

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Guliston shahri (214,3 mlrd.so'm), Sirdaryo tumani (54,5 mlrd.so'm), Yangiyer shahriga (27,0 mlrd.so'm) , to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Shirin shahri (4,5 mlrd.so'm), Oqoltin (9,2 mlrd.so'm), Sardoba (12,7 mlrd.so'm) tumanlarida kuzatilmoqda.

Ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmatlar sohasini hududlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlamasdan turib viloyat iqtisodiyotining yirik tarmog'i sifatida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib bo'lmaydi.


2018 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da



Hududlar bo'yicha xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Guliston shahri (52,0 %), Sirdaryo tumani, (13,2 %), Yangiyer shahri (6,6 %), Boyovut (4,8 %), Sayxunobod (4,7 %) tumanlari egallaydi.

2018 yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 504,1 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 104,8 % ni tashkil etdi.


2018 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahrida - 2426,6 ming so'm qayd etilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,2 % ni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga xizmat ko'rsatishning eng past ko'rsatkichi Boyovut tumanida kuzatildi - 158,3 ming so'm, o'sish sur'ati esa 102,6 % ni tashkil etdi. Bu maskur tumanda aholi zich joylashganligi bilan izohlanadi.

**2018 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'y'cha
bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da**



2018 yil yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan ta'lim sohasidagi xizmatlar (126,3 %), ijara xizmatlar (125,7 %), moliyaviy xizmatlar (125,3 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (120,0 %), kabi xizmatlarning o'sish sur'atlari yuqori sur'atlarda oshdi.

2018 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarish tarkibi, % da



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush - savdo xizmatlari (33,3 %), transport xizmatlari (18,8 %), moliyaviy xizmatlar (14,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (9,3 %) ni tashkil etadi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: Sh.Usmonqulov
(0371)-230-86-31
(0367)-225-29-20